

## JADID MATBUOTI DAVRIDA AHOLI TIBBIY MADANIYATINING IJTIMOIY HAYOTDAGI ROLI

**Qurbonova Gulruxsor**

*O‘zJOKU, 3-bosqich maqsadli tayanch  
doktoranti*

*“Madaniy davlatning barcha fuqarolari ma‘rifatning porloq ziyosiga intilmog‘i kerak.  
Madaniyat ziyosiga yo‘l ochmoqning eng yaxshi omili matbuotdir”*

*M.Behbudiy*

**Annotatsiya:** *Jadidchilik jahon ijtimoiy va milliy qadriyatlarga asoslangan oqim bo‘lib, O‘rta Osiyo mahalliy tub aholisi manfaatlariga javob bergan va ijtimoiy taraqqiyotning pishib yetilgan ehtiyojlarini to‘la qondira oladigan harakat sifatida shakllandi. Jadidchilik ma‘rifat- parvarlikdan kuchli siyosiy harakatgacha bo‘lgan murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Jadidlarning ma‘rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo‘lganligi mazkur tadqiqotda yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ma‘rifatparvarlik, ommaviy madaniyat, profilaktik, epidemiya, progressizm, novatorlik, prinsip, global, BMT.*

Jadid matbuotining shakllanishidagi o‘ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy o‘zbek matbuoti shakllanishida jadid matbuotining o‘rni va roli muhim ahamiyatga egadir. Demak, jadidlarning matbuot sohasida muayyan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lganliklari va mazkur sohani rivojlantirishga alohida e‘tibor berganliklari o‘rinlidir. “Jadidlar millatni, Vatan saodati, uning baxti va ravnaqi, millat taraqqiy topishi, yurt ozodligi uchun fidoiylik ko‘rsatishga da‘vat etgan edilar” – Timur Kocaoğlu fikrlarida shunday bayon qilgan edi.

Alohida ta‘kidlash joizki, XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Turkiston hududida insonlar muhtojligini qondira oladigan va davolash-profilaktik va epidemiyaga qarshi yordam ko‘rsata oladigan shifokorlar va tibbiy ta‘lim tizimi umuman bo‘lmagan. Turkiston Avtonom Respublikasi, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasiga yevropa ilmiy tibbiyoti asoslarini biladigan maxalliy aholidan shifokorlar tayyorlash va o‘qitish tizimini yaratish hayotdek zarur edi<sup>1</sup>. Chunki, aholi salomatligi va sog‘lom muhit shakllanishi eng muhim masalalardan biri hisoblangan.

Turkistonliklarning tibbiyotga bo‘lgan ishonchi tezda shakllanmadi va ulardan doim zaxira sifatida milliy tizimdan foydalanish imkoniyati saqlanib qoldi. Bu zaxira ko‘rinishi esa xalqni yangi tizimga nisbatan ishonchsiz va ayrim o‘rinlarda qo‘rquv aralash munosabatini shakllanishiga olib keldi. Bu esa, o‘lkaga kelgan shifokorlar ham hukumatning maqsadli siyosati yo‘lida xizmat qildi va ular o‘lka aholisiga barcha

<sup>1</sup> M. Radjabova ., XVIII-XIX asrlarda turkistonda tibbiyot muassasalarining ochilishi va ularning ahamiyati. Toshkent, 2019. – B.22.

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

mustamlakachi davlatlarda bo‘lgani kabi past nazar bilan qaraldi<sup>2</sup>. Turkistonda jadidchilik qisqa mavjudlik vaqtida ma’rifatparvarlik faoliyati tufayli yangi usul maktablari yaratildi, mahalliy ziyolilarning ilg‘or qismi progressizm<sup>3</sup> va ma’rifatni faol targ‘ib qildi.

Turkiston jadidlarining jamiyatni qayta shakllantirishga qaratilgan butun sa’y-harakatlari chinakam novatorlik edi, tarixiy nuqtai nazardan esa bu faoliyat progressiv va ma’rifiy ahamiyat kasb etardi. Jadidlarning dasturiy hujjatlarida birinchi galda e’tibor jamiyatni boshqarish mexanizmlarini yaratishga qaratilgan edi. Milliy-hududiy muxtoriyatning asosiy prinsiplarini amalga oshirishga ko‘mak beruvchi mexanizm. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach siyosiy, tibbiy, iqtisodiy va madaniy sohalar qatori matbuotga nisbatan ham yangicha munosabat yuzaga keldi<sup>4</sup>. Chunki jadidlar matbuoti to‘g‘risidagi haqiqatning tiklanishi ham bevosita milliy istiqlolning ro‘yobga chiqishi bilan uzviy bog‘liq.

Jahonda atrof-muhitni muhofaza qilish, global ekologik holatni barqarorlashtirish inson ongi, tafakkuri, aql-idroki, intellektual salohiyatiga bog‘liq ekanligi, tabiatga nisbatan yuksak madaniyat va dunyoqarashni shakllantirish, geomadaniyat va shaxsiy gigiena, tabiiy muvozanatni buzmaslik to‘g‘risidagi qarashlarini qayta ko‘rib chiqish dolzarb muammoga aylandi. BMT bosh kotibi Antoniu Guterrish dunyo “tabiatga qarshi urushni” to‘xtatishi va iqlim o‘zgarishi bilan kurashish uchun o‘zida ko‘proq siyosiy iroda topa olishi lozim. Uning ta’kidlashicha, tabiatga qarshi urushni to‘xtatishning imkoni bor. Bunday vaziyatda ilm-fan oldida yangicha tadqiqotlar, yondashuvlar va konsepsiyalar yaratish vazifalari yuzaga chiqmoqda. Tarixiy taraqqiyot davomida insoniyat tabiatni sevish, uni asrab-avaylashdan iborat ma’naviy-axloqiy kamolotga da’vat etib kelgan.

Jumladan, umumjahon ekologik ma’naviy tafakkur rivojiga Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar dunyoqarashini ifodalagan ekologik mavzudagi ma’naviy merosi ham bunga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilganligi tarixiy haqiqatdir. Insonning ekologik tafakkur tarzi u yashab turgan mintaqaning tabiiy-geografik shart-sharoitiga, turmush maromiga va mavjud jamiyat kishilarining tabiat to‘g‘risidagi dunyoqarashi hamda unga bo‘lgan munosabatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Jadidchilik harakati va uning yetuk vakillari tomonidan atrof-muhit, tabiatga oqilona munosabatni shakllantirish, tabiatni asrashga doir qarashlari, milliy tabiat boyliklaridan oqilona

<sup>2</sup> Tarjimon gazetasining 1912 yil noyabr dekabr soni va 1913 yil 1-soni.

<sup>3</sup> <https://www.uzanalytics.com/tarix/7171/#ftn37>

<sup>4</sup> Alimova D. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: Universitet, 1999. – B.35 – 52;

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

foydalanish, avaylab-asrash o‘rniga uni talon-toroj etish siyosati qo‘llangani haqli ravishda qoralanganini alohida ta’kidlash lozim.

Jadidlar e’lon qilgan manbalarda madaniyat masalasiga taalluqli qarashlar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, o‘tgan asrning boshlaridayoq yangi bosh ko‘tarayotgan ommaviy madaniyat tahdidining real xavfidan o‘z davri voqealari jarayonini sinchkovlik bilan kuzatib borgan jadidlarning xabardor bo‘lgani, xabardor bo‘libgina qolmasdan boshqalarni ham hushyorlikka chaqirganini aytib o‘tish lozim. Jumladan, Fitratning 1918-yilda «Hurriyat» gazetasida bosilgan «Turkistonda ruslar» maqolasida shunday yoziladi: «Bir kishining miyasig‘a chog‘irning qanday ta’siri bor esa, bir millatning miyasig‘a daxi saltanat va madaniyat ichgusining shundayin ta’siri bor. Saltanat, boylik va madaniyat ichgulari bizning miyamizni buzdi, bizni mast etdi, qo‘limizdag‘i saltanat qilichi bilan madaniyat daftarini bir yonga qo‘yib safoat cholg‘ularini oldiq. Urdik, choldik, ichdik, yiqildik, yondik va shunlar uchun bir-birimiz bilan urushdik. Mana shu chog‘larda edikim: Rusiya davlati bizning o‘lkalarimizni kelib bosdi. Ortuq biz Turkiston turklari Ovrupa madaniyati tashiguvchi bo‘lg‘an rus millatig‘a yo‘liqg‘an edik. Madaniy ruslar bilan qorishib unlarning dalolati ila Ovrupaning madaniy va ijtimoiy usullaridan ta’sir olmog‘imiz kerak edi<sup>5</sup>». Biz jadidchilik qarashlarini yangi g‘oyalar bilan o‘stirmog‘imiz lozimdir. To‘g‘ri, insoniyat rivojlanishi keskin darajada o‘sib bormoqda, biroq maqsad bir, fikrlar bir, yondashuv bir demak, faqat birlashmoq lozim, birlashuv bu eng katta kuchdir. Biz shunday kuchli va mustahkam, ziyoli, bilim tafakkuri keng bo‘lgan mustahkam davlat poydevorini barpo etgan jadidlar avlodlarimiz.

O‘zbek jadid adabiyotining peshqadam vakillari Behbudiy, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy ijodida garchand Ibrat, Furqat, Muqimiy, Ahmad Donish singari ustozlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari etakchilik qilgan bo‘lsa-da, bu g‘oyalarning ular ijodida xalq va mamlakat taqdiri ila uzviy bog‘lanib ketgani bilan farqlanadi. Jadid shoir va yozuvchilarning asarlarida ifodalangan ma’rifatparvarlik g‘oyalari erk va hurriyat g‘oyalari bilan, mustaqillik uchun kurash g‘oyalari bilan tutashib ketgan. Jadid yozuvchilari ijodidagi ma’rifatparvarlik g‘oyasining sig‘imi benihoya kengdir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida xorijiy mamlakatlarga borib, u yerdagi ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy sohalarda erishilgan yutuqlarni ko‘rib kelgan vatandoshlarimizning xotiralari yoki shu mamlakatlardan Turkistonga olib kelingan ijtimoiy-madaniy g‘oyalar, adabiyot va san’at namunalari o‘zbek jadidchilik harakati va adabiyotining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

<sup>5</sup> A. Fitrat. Tanlangan asarlar, Dramalar, publitsistik maqolalar, Toshkent:Ma’naviyat. 1918.

Shunday qilib, birinchidan, mustamlaka Turkistondagi tarixiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoit, ikkinchidan, o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti namoyandalarning taraqqiyparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan asarlari, xorijiy mamlakatlarga borib, qardosh xalqlarning iqtisodiy va madaniy hayoti bilan tanishgan sayyohlarning xotiralari, uchinchidan, Turkiston bilan xorijiy dunyo o‘rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalarning o‘rnatilishi, to‘rtinchidan, Turkistonga Qrim, Turkiya va Volga bo‘yidan ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik va islohotchilik g‘oyalarining kirib kelishi, beshinchidan, Turkistonda milliy matbuot va teatrning tug‘ilishi XX asr boshlarida biz yashayotgan zaminda jadid adabiyotining maydonga kelishida asosiy manbalar bo‘lib xizmat qildi deb ta’kidlagan edi akademik olim, Naim Karimov. Haqiqatdan, ham inson o‘z tarixi va madaniyatini kengroq anglab yetishi uchun bilim tafakkuri boy bo‘lishi, sog‘lom fikrlashi, o‘z ilmiy salohiyatiga ishonishi jamiyat ertangi kuni rivojlanishidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadidchilik milliy ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o‘zbek halqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy madaniy harakat bo‘lganligi bilan ajralib turgan. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g‘oyalar yetakchilik qilgan. Jadid ziyolilari erk, istiqloлга erishish uchun milliy ongini o‘stirish zarurligini payqadilar. Shu ma’noda ularning g‘oyalaridan va hayotiy pozitsiyalaridan foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi. Jadid matbuotida ozodlikka, mustaqillikka qon to‘kislarga olib keluvchi turli to‘polon, qirg‘in-barot urushlar bilan emas, balki aholining savodini chiqarish, o‘z milliy madaniyatini shakllantirish, adabiyoti va sa’natini yuksaltirish, aholi salomatligiga befarq qaramaslik, tibbiy madaniyatini o‘stirish ularning ma’rifatini ko‘tarish orqali qaramlikdan qutulish g‘oyalari ilgari surilgan. Mazkur g‘oyalarni hozirgi zamon ruhiyatiga moslashtirgan holda rivojlantirish oliy maqsadlardan biri bo‘lmog‘i muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Radjabova. “XVIII-XIX asrlarda turkistonda tibbiyot muassasalarining ochilishi va ularning ahamiyati”. Toshkent, 2019. – B.22.
2. Tarjimon gazetasining 1912 yil noyabr dekabr soni va 1913 yil 1-soni.
3. Alimova D. “Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash”. – Toshkent: Universitet, 1999. – B.35 – 52;
4. Zaleskaya, Yu.I. “Управление процессом формирования экологической культуры личности”. – 2008. – № 4.–В. 12-16.
5. Fitrat. Tanlangan asarlar, Dramalar, publitsistik maqolalar, Toshkent: Ma’naviyat. 1918.
6. <https://www.uzanalytics.com/tarix/7171/#ftn37>